



TALABALAR TURAR JOYINING ONLAYN BOSHQARUV TIZIMI

ОНЛАЙН-СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ СТУДЕНЧЕСКИМ ОБЩЕЖИТИЕМ

ONLINE STUDENT HOSTEL MANAGEMENT SYSTEM

Shermatova Xilola Mirzayevna

Farg'ona davlat universiteti datsenti,
shermatovahilola1978@gmail.com

Xabibullayeva Muxlisa Xamidullo qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi,
humayro21m@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalar turar joylarida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish zarurati, mavjud muammolar va ularni yechishda onlayn boshqaruv tuzimining o'ri tahlil qilinadi. TTJ onlayn boshqaruv tizimining asosiy funksiyalari, foydalanuvchilari va afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali talabalar hayotini yengillashtirish, boshqaruvdagi shaffoflikni ta'minlash kabi imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Maqola yakunida tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Talabalar turara joyi, onlayn boshqaruv, raqamlashtirish, TTJ tizimi, talaba hayoti, boshqaruv qulayligi.

Аннотация. В данной статье анализируется необходимость внедрения современной системы управления в студенческих общежитиях (ТТС), существующие проблемы и роль онлайн-систем управления в их решении. Освещены основные функции, пользователи и преимущества онлайн-системы управления ТТЖ. Также будут рассмотрены такие возможности, как облегчение жизни студентов и обеспечение прозрачности управления с помощью цифровых технологий. В конце статьи даны рекомендации по улучшению системы.

Ключевые слова: Студенческое общежитие, онлайн-управление, цифровизация, система ТТЖ, студенческая жизнь, удобство управления.

Annotation. This article analyzes the need to introduce a modern management system in student dormitories existing problems and the role of online management systems in solving them. The main functions, users and advantages of the SDR online



management system are highlighted. It also considers the possibilities of facilitating students' lives through digital technologies and ensuring transparency in management. At the end of the article, recommendations are given for improving the system.

Key words: *Student residence, online management, digitalization, TTJ system, student life, ease of management.*

KIRISH

Talabalar turar joyi(TTJ)—bu oliy ta'lim muassasalari tomonidan talabalarni vaqtincha yashash bilan ta'minlaydigan muassasa hisoblanadi. Bugungi kunda talabalar sonining ortib borayotgani TTJlarga bo'lgan ehtiyojni ham keskin oshirib yubordi. Afsuski, hozirda ko'plab TTJlarda hujjatlar qog'ozda olib boriladi, ro'yxatga olishda tartibsizliklar kuzatiladi, talabalarga xona ajratishda adolatsizliklar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, talabalar tomonidan bildirgan murojaatlar, shikoyatlar yoki takliflar ba'zida yo'qolib ketadi yoki vaqtida ko'rilmaydi. Bunday muammolar TTJ dagi boshqaruv tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Zamonaviy davrda hayotning barcha sohalarida raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. TTJ larda ham onlayn boshqaruv tizimini joriy etish—talabalar hayotini yengillashtirish, ma'muriyat ishini tartibga solish va eng muhim, shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi. Onlayn tizim orqali talabalar o'z uylaridan turib ro'yxatdan o'tishlari, xonaga joylashish uchun ariza topshirishlari, murojaat yoki taklif yuborishlari mumkin. Bu esa ularga vaqt tejaydi va keraksiz navbatlardan xalos qiladi. TTJ uchun mo'ljallangan onlayn boshqaruv tizimi quyidagi modullardan tashkil topgan: Ro'yxatdan o'tish moduli—talabalar o'z shaxsiy ma'lumotlari bilan tizimga kirishadi. Xona band qilish moduli—mavjud xonalar ro'yxati ko'rsatiladi va talaba o'zi uchun mos xonani tanlay oladi. Murojaat yuborish bo'limi—har bir foydalanuvchi shikoyat, taklif yoki so'rov yuborishi mumkin. Xabarnomalar—ma'muriyat tomonidan yuborilgan eslatmalar, umumiy tartib—qoidalar va yangiliklar shu yerda aks ettiriladi. Admin panel—bu orqali ma'muriyat talabalarni kuzatib boradi, javoblar beradi, statistikani tahlil qiladi. Onlayn boshqaruv tizimining afzalliklari juda ko'p. Eng avvalo bu—tezkorlik va qulaylik. Talabalar navbat kutmaydi, hujjatlar yo'qolmaydi, murojaatlar vaqtida ko'riladi. Tizimda barcha ma'lumotlar bazada saqlanadi, bu esa istalgan paytda ularni qayta ko'rish imkonini beradi. Bundan tashqari, shaffoflik ta'minlanadi, ya'ni kimga qanday xona berilgani ochiq ko'rinadi. Bu tizim orqali rahbariyat ham o'z faoliyatini samaraliroq olib boradi. TTJ onlayn



boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish uchun uni mobil ilova taqsimlash, tez-tez murojaat qininadigan muammolarni oldindan aniqlash kabi imkoniyatlar ham joriy etilishi mumkin. Bu esa nafaqat talabalar uchun, balki butun universitet rahbariyati uchun katta qulaylik yaratadi.

Tizimning maqsadi va vazifalari.

Talabalarni joylashtirish jarayonini soddalashtirish. Hujjat topshirish va ruxsat olish tartiblarini onlayn shaklga o'tkazish. To'lovlar va statistik ma'lumotlarni nazorat qilish.

TTJda yashovchi talabalar haqidagi ma'lumotlarni markazlashtirish. TTJ xodimlari va talabalarning o'zaro muloqotini osonlashtirish.

Tizimning asosiy funksiyalari.

Ro'yxatdan o'tish va avtorizatsiya: Foydalanuvchilar (talaba, TTJ xodimi, administrator) turiga qarab tizimga kiradi. Joylashuvni boshqarish: Bo'sh joylar, xonalar holati, joylashtirish tarixi kabi ma'lumotlarni ko'rish. Ariza va shikoyat yuborish: Talabalar murojaatlarini onlayn shaklda yuboradi, javoblarni kuzatadi.

To'lovlar monitoringi: To'lov qilingan yoki qilinmagan holatlarni avtomatik qayd etish. Hisobot va tahlillar: Admin uchun hisobotlar, statistikalar va rejalashtirish imkoniyati.

Tizim foydalanuvchilari.

Talabalar: Shaxsiy kabinet orqali ariza topshirish, to'lov holatini ko'rish, shikoyat yuborish. TTJ ma'muriyati: Xonalarni boshqarish, arizalarni ko'rib chiqish, hisob-kitoblarni yuritish. Administratorlar: Tizimni boshqarish, foydalanuvchi rollarini aniqlash, xavfsizlikni ta'minlash.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, talabalar turar joyini onlayn tarzda boshqarish tizimini joriy etish bugungi kunda nafaqat qulaylik, balki zaruratga aylanib bormoqda. Farg'ona davlat universiteti misolida oladigan bo'lsak, har yili minglab talabalar TTJga joylashtiriladi va bu jarayonning tartibli, adolatli hamda shaffof bo'lishi har bir talabaning haqqi hisoblanadi. Onlayn tizim orqali esa bu maqsadga erishish mumkin. Tizim yordamida talabalar o'z uylaridan turib ro'yxatdan o'tishi, xonaga joylashish, murojaat yuborish, yangiliklardan xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ma'muriyat uchun esa ish hajmi kamayadi, nazorat osonlashadi, statistik tahlillarni tez va aniq qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Eng muhimi, bunday tizim orqali boshqaruvda ochiqlik va ishonchli muhit shakllanadi. Talabalar o'zini qadrlangan va e'tiborga olingan his qiladi. Kelajakda bu tizimni takomillashtirish, uni mobil ilova ko'rinishida ishga tushirish yoki sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirish orqali yanada samarali qilish mumkin. Shu sababli, TTJ onlayn





boshqaruv tizimi nafaqat bugungi kun uchun, balki ertangi kunning ham muhim innovatsion loyihalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Turaev X.N., Normurodov M.O. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Islomov I.B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
3. Qodirov B.K., Ashurov T.S. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2021.
4. Web-Based Management System for the Dormitory of University Students. – ResearchGate, 2024. <https://www.researchgate.net/publication/376893405>
5. Jizzax davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti. “Talabalar turar joyi boshqaruv nizomi”. – <https://jdpu.uz>
6. Лойко В.И. Структуры и алгоритмы обработки данных. Учебное пособие для вузов. - Краснодар: КубГАУ. 2000. - 261 с., ил.

